

DUNYONING TOP 1000 TALIGIGA KIRGAN OTMLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARI

KAMAROVA Mo'minabonu Baxritdinovna

Ilmiy rahbari: JAKBAROV Musoxon Pulotovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoning top 1000 taligiga kirgan OTMLar va ularning fakutetlari, hujjatlarni qanday topshirish, kirishga talabalarga qo'yilgan talablar, qiziqarli faktlar, shuningdek, o'qitishning samarali metod va texnologiyalari haqida ma'lumotlar keltirilgan

Kalit so'zlar: Harvard universiteti Suqrotning o'qitish uslubi, Yaponiya Nogoya universiteti itoatkorlik tartiblilik, Prinston universiteti shiori: Dei sub numine Под Божьей властью процветает Xudoning boshqaruvi ostida gullayveradi

Dunyoning top mingtaligiga kirgan OTMLar o'zining tarixi, o'qitish metodi va zamonaviy texnologiyalari bilan ajralib turadi. Dunyoning top mingtaligiga kirgan Prinston universiteti o'zining Qadimiy qurilishi va zamonaviylik va klassikani birga uyg'unlashtirganligi bilan boshqa universitetlardan ajralib turadi. Qadimiy va mashhur Prinston universiteti Prinston shahrida, Nyu-Jersi shtatida joylashgan bo'lib, kutubxonasida 2mlndan ortiq asarlar saqlanadi. Prinstonga Janatan Dickinson tomonidan asos solingan bo'lib, shiori: "Lot Dei sub numine", buning ma'nosi "Под Божьей властью процветает", o'zbek tilida bu "Xudoning qo'l osti boshqaruvi ostida gullayveradi" degan ma'noni anglatadi. Prinston universiteti AQShning yirik o'quv va ilmiy markazi 1746-yil Kollej sifatida faoliyat yurita boshlagan, 1896-yilda universitet maqomiga ega bo'lgan Universitet Qo'shma Shtatlardagi eng qadimiy to'rtinchi o'quv yurtidir. Rasmiy veb - sayti: Princeton.edu. Prinstonda universitetida bakalavriat va magistratura yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olish mumkin, shuningdek grant yutib olish imkoni bor.

Kirish talablari

- minimal yosh: 18yosh

- ingliz tili darajasi:

Bakalavr darajasi: IETS 7.0+

TOEFL 100+

Magistratura darajasi: ILTS 7.5+, TOEFL 108+

Akademik talablar: GPA 3.0dan

SAT ACT

Prinston universitetining fakultetlari quyidagilardan iborat:

Tarix, arxitektura shaharsozlik, matematika, geologiya, ijtimoiy fanlar, falsafa,

fizika, siyosat, psixologiya, iqtisodiyot, jismoniy madaniyat

Talabalar shaharchasida 10ta kutubxona, san'at muzeyi, teatr, suzish havzasi va tennis korti bo'lgan katta fitnes markazi mavjud. Prinston universiteti professional sportchilarni tayyorlaydi. Sportchilar golf bo'yicha 12ta , lakros bo'yicha 6ta va eshkak eshish sporti bo'yicha 14ta milliy chempionatda g'olib chiqqan. Bitiruvchilarning 90%dan ortig'I 6oy ichida ishga joylashtiriladi. Prinston professor -o'qituvchilari bilan faxrlanadi. Ularni o'qitish metodi boshqacha, bu yerda har bir talabaga alohida e'tibor beriladi, jismoniy tarbiya va o'qish birgalikda olib boriladi shuning uchun talabalar sog'lom, vaqtida dam olish uchun sharoitlar bor, talabalar bilimlarini amalda tajriba qilib mohiyatini anglash uchun sharoit bor, keyin talabalarga ishonishadi oraliqlarda sessiyalarda talabalar ko'chirmaymiz, ya'ni plagiarizmdan foydalanmayman deb va'da beradilar, o'qituvchi-professorlar ishonadilar va shuning uchun talabalar har bitta fandan 10 soatdan tayyorgarlik ko'rishadi.

Prinston universitetining taniqli bitiruvchilari:

Mishel Obama: AQShning sobiq 1-xonimi

Jeff Bezis: Amazon asoschisi va bosh direktor

Angus Deaton: iqtisod bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori

Bruk Shilds: model, aktrisa

Erik Shmidt: Google bosh direktori

Devid Duxovniy: aktyor

Albert Enshteyn: fizika bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori

Jaymes Medison: AQSh prezidenti

Vidro Uilson: universitet rektori 1912-21-yilllarda AQSh prezidenti

Richard Phillips Feynman: mashhur amerikalik olim, atom bombalarini ishlab chiqaruvchi

Jon Forbs: geniy -matematik Olim

Top 1000 talikdagi 120-o'rinni egallab turgan Nagoya universitetini ham aytib o'tish joiz deb o'ylayman. Yaponiyaning Nagoya universiteti mamlakat markazida joylashgan bo'lib, Tokio va Kioto universitetlaridan keyin 3-o'ronda turadi. O'qituvchilari yapon va ingliz tillarida dars bera oladi, ayrim yapon professorlari hattoki nemis, fransuz, rus tillarini ham mukammal bilishadi. Yaponiyada talabalar o'zgalarning shaxsiyatini, qarashlarini, fikrlarini hurmat qilishi, barcha ishlari yozilgan maxsus daftarcha tutib yurishadi. Tartib qoidalarga o'ta itoatkor, talabalar juda tirishqoqlik bilan o'qishadi. O'ziga to'q oila farzandlari ham 1-kursdan

ishlashadi. Har bir kunlarini 1hafta oldin yozib qo'yishadi. Ertalab soat 5 va 6dan kechgi soat 24gacha hammalari band. Bu yerda suzishdan tortib ovqat pishirishgacha bo'lgan turli to'garaklar bor. Bularning bari talabalar uchun bepul. Yapon jang san'ati—aydikoni ham o'rgatishadi. Universitet kutubxonalari soat 23:00gacha ishlaydi va kompyuter, internet va multimedia xonalaridan bemalol foydalanishlari mumkin. Bu yerning o'qitish metodida talaba o'zi harakat qilishi kerakligini his qiladi va muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi. Talabaga muammo beriladi, talaba muammoni o'rganib, tahlil qilib, o'z xulosalari yechimlarini standartlar asosida yozib, professorlarning pochta-siga yuboradi, professor har bir uy vazifani tekshirib, onlayn tarzda baholaydi. Bunda talabalarga o'qishga majburlash sezilmaydi. O'qisangiz o'qiysiz, bo'lmasa pul to'lab o'sha yilni takroran o'qishga to'g'ri keladi. Imtihonlarda talabalarga vaqt beriladi, vaqtida vazifani bajarganga baho qo'yiladi, kech qolganga yo'q. Bunda talabalar ishni vaqtida, sifatli qilishni o'rganadi.

JDS granti asosida Yaponiyaga kelish mumkin. IELTS kamida 5.0 bo'lishi va O'zbekistondagi 89ta davlat va nodavlat tashkilotlaridan birida ayni paytda ishlayotgan va dasturga topshirish vaqtida 2 yillik ish staji bor odam oladi.

Dunyo bo'yicha 5-o'rinda turuvchi Harvard universitetining ham o'qitish metodi o'zgacha. Harvard universitetida professor-o'qituvchilar “Suqrotning o'qitish uslubi” deb nomlangan tizim joriy qilingan.”Suqrotning o'qitish uslubi” faylasuf tomonidan shogirdlariga berishda qo'llanilgan o'zgarmas oddiy qoidalarga bo'ysunadi:

Manfaatli suhbat asosida masalani muhokama etish, savol-javob shaklida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda ilk farazlardan natijadan ajratib olishdan ibodat. Bu shunday dialektik uslubkii, uning ishtirokchisi o'z fikrini himoya qilishi, boshqasi asoslantirilgan dalillar bilan qarama-qarshi “hujum”ga o'tishi mumkin. Harvardda ta'lim beruvchi professor va murabbiylar “Suqrotning o'qitish uslubini” puxta tushungan pedagoglardir. Suqrot uslubida, Suqrot Izdoshlari ya'ni Harvard professorining maqsadi talabaning darsga tayyor emasligini bildirib, sharmanda qilish emas, qo'rquvdan o'z fikrini ifoda eta olmaslikdan talabalarni asrash. Darslar davomida talabalar o'zlariga to'g'ri savol beradilar, to'g'ri javobni topib, munozara qiladilar.”Ayovsiz va sovuq” savollar bilan talabani “ishlashga” majbur qiladigan o'qituvchilar ham bor Harvard universitetida. Suqrot: Men hech kimga hech nimani o'rgatolmayman, balki kishilarni fikrlashga yo'naltirib yuborishim mumkin degan.

Harvard universitetlari fakultetlari:

Iqtisodiyot ilohiyot maktabi tibbiyot maktabi oliy san'at va badiiy fanlar huquq tish shifokorligi maktabi oliy o'quv yurtlari o'qituvchisi

Jamoat salomatligi maktabi Harvard Boston shahri yaqinidagi Camridge shahrida joylashgan. Ingliz Vaziri, san'at bakalavri J. Harvard nomi bilan ataladi. 19-asrning 1-choragida universitet bo'lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, dunyoning top 1000 taligiga kirgan OTMlardagi

metodlarni namuna sifatida chuqur o'rganish lozim va bu qiziqarli o'qitish metodlari va usullaridan foydalanib, o'qitishning sifatini yanada yaxshilash mumkin. O'ylaymanki, yuqorida ko'rsatilgan chet eldagi nufuzli oliy o'quv yurtlari yutuqlari va ularning ta'lim sohasida bir - biriga o'xshamagan o'qitish metodlari, talabalarga yaratilayotgan eng zamonaviy sharoitlar va yo'ndashuvlar bizning mamlakatimizdagi oliy o'quv yurti maskanlari, xususan bizning oliygohga ham yahshi andoza bo'la oladi. Bunday misollar mamlakatimizdagi universitet va institutlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zME.Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.
2. O'zME Birinchi jild.Toshkent.2000yil O'zbekiston
milliysiklopediyasi2000-2005yillar
3. Палуанова, Халифа Дарибаевна. "Экологик терминларнинг деривационсемантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида). Филол. фан. д-ри.(DS)... дисс. автореф." Тошкент.- 2016 (2016).
4. Палуанова, Халифа Дарибаевна. "Изучение экологических единиц в английском языке." (2016): 72-72.